

## O‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI

**Muyassarxon Achildiyeva**

*Farg‘ona davlat universiteti “San‘atshunoslik” fakulteti Musiqa ta‘limi va madaniyati” kafedrası o‘qituvchisi*

**Ruxshona Atkiyoyeva**

*Farg‘ona Davlat Universiteti San‘ashunoslik fakulteti “Musiqa ta‘limi” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** totemistik, animizm, pantomimo, raqs, balet, libretto, kompozitor, baletmeyster, dramaturg.

### Annotasiya

Ushbu maqolada o‘zbek balet san‘atining yuzaga kelish tarixi haqida ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, milliy o‘zbek baletlarining psixo-estetik ahamiyati hamda zamonaviy kompozitorlarning baletni rivojlanish yo‘lida qo‘shgan hissalarini haqida fikr va mulohazalar keltiriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Raqs san‘ati o‘zbek va dunyo xalqlari tarixida qadimgi san‘at turlaridan sanaladi. Uning chashma ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Mazkur jamiyatning ilk davrlarida inson totemistik va animizm dunyoqarashlari bilan tabiat hodisalarining tub sabablarini tushunib yetolmay: yashin, momaqaldiroq, bo‘ron, zilzila, quyosh va oy tutilishi kabi tabiiy ofatlarni ilohiy kuch deb o‘ylab ramziy obrazlar yaratishgan. Jodu va afsun yo‘li bilan hayvonlarga sig‘inib “pantomimo” orqali ularga taqlid qilib o‘ynaganlar.

Asrlar davomida dunyo xalqlarining o‘ziga xos, milliy raqs san‘ati turli yo‘nalishlarda rivojlandi. Vaqtlar o‘tib o‘zbek xalqining ham raqs san‘ati rivoj topdi. O‘zbekistonda ilk bor raqs maktabi Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent uslubi orqali yuzaga keldi. Raqs maktablarini jadal rivojlanishi bevosita O‘zbekistonda balet janrida mustahkam ustun qo‘yilishiga sabab bo‘ldi.

**Balet** (lot. Ballo – raqsga tushaman) - asar mazmunini musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san‘ati turi bo‘lib, o‘zida san‘atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san‘at kabi turlarini uyg‘unlashtiradi. Bu san‘at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo‘lmay, baletning sintez markazi bo‘lgan xoreografiyaga bo‘ysunadi. Bir so‘z bilan aytganda balet - asar qahramonlarining ichki hissiy kechinmalarini raqs harakatlari orqali tinglovchiga yetkazib beruvchi janrdir. Balet librettochi, kompozitor, balatmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. Baletning dramaturgik asosi librettoda yotadi. Senariy asosida esa kompozitor belet musiqasini yaratadi. Musiqa faqat senariyni ifodalabgina qolmay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan asarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

30-yillarda o‘zbek musiqali teatri rivojlanishi bilan birgalikda balet san‘ati ham yuzaga keldi. “Paxta” nomli birinchi o‘zbek baleti 1933-yili musiqali teatrda san‘at yuzini ko‘rdi. Kompozitor M.Roslaves yozgan bu balet tez orada sahnadan tushib ketdi. Sababi, ushbu baletning asosi faqatgina raqsning oddiy ritmik harakatlari bilan ifodalangan va unda hech qaysi qahramonning ichki kechinmalari va voqealarning keskin rivojlanishi aks etmagan. Asarning mazmuni bitta, ya‘ni, paxta yig‘ish jarayoni.

Adabiy mazmun jihatdan balet sayoz va musiqiy dramaturgiya boʻshliqdan iborat edi. Mazkur balet bugungi kunda pantomimo janriga mansub deya taʼriflangan.

Keyinchalik oradan 6 yil vaqt oʻtib 1939-yilda keyingi balet sahna yuzini koʻradi. F.Tallning “Shohida” (Ya.Yusupov va A.Bander librettosi) baleti xalq orasida katta shov-shuvlarga sabab boʻldi. Sababi, ushbu baletda Shohida va Botir taqdirleri 20-30-yillarda Oʻzbekistonda kolxoz tuzish davrida sodir boʻlgan sinfiy kurash voqealari bilan bogʻlangan. Baletning mazmuni va musiqiy dramaturgiyasida ayrim kamchiliklar boʻlishiga qaramasdan u sahnada bir necha yil yashaydi. Balet xalqning ongiga shu darajada psixik taʼsir koʻrsata oladiki, xalq uni qayta-qayta koʻrishga kelaveradi. Sababi, aynan ikkinchi jahon urishi arafasida nohaqlik va quruq tuxmatga chidagan xalq haqiqatni sahnada koʻrib oʻzi uchun tom maʼnoda oʻrnak qilib oladi.

1940-yili E.Brusilovskiyning “Gulandom” baleti dunyoga keladi. Mazkur baletning dunyoga kelishida Tamaraxonim shunday hikoya qiladi: “1935-yili M.Qoriyoqubov rahbarligida Xorazmga bordik, xalqqa tomoshalar koʻrsatdik. Xorazm xalq musiqa va raqs sanʼatlari bilan yaqindan tanishdik, maftun boʻldik. Ansamblimizning musiqa rahbari bastakor va sozanda P.Rahimov bilan birgalikda koʻp narsalarni oʻrgandik va shu paytda eshitgan musiqalar asosida balet yozish gʻoyasi tugʻildi. Ushbu gʻoyani amalda joriy etish niyyatida “Gulandom” baletining librettosi ustida shoir A.Uygʻun, M.Yanovskiy bilan birgalikda 1939-yil ishladik. P.Rahimov esa Xorazm xalq musiqalarini va oʻzi bastalagan kuylarni E.Brusilovskiyga berdi. U balet partiturasini meʼyoriga yetkazdi va 1940-yil 3-mart kuni “Gulandom” nomli baletni tomoshabinlarga havola etdi. Ushbu baletning baletmeysteri I.Arbatov, rassom M.Musayevlar bilan hamkorlikda sahnalashtirildi”.<sup>1</sup>

“Gulandom” baleti “Shohida” baletiga qaraganda ancha mukammalroq boʻlib, oʻn yil davomida teatr repertuarlaridan oʻrin oldi va bu vaqt ichida uch marotaba qayta sahnalashtirildi.

Oradan oz-muncha vaqt oʻtib kompozitorlar ijodi bevosita urush davriga toʻgʻri keldi. Xalq notinchlikdan charchadi, ular ruhiyatida umid uygʻotuvchi biron narsaga ehtiyoj seza boshladi. Aynan urush avjiga chiqqan payt 1943-yil S.N.Vasilenkoning “Oq bilak” (A.Smironov librettosi) nomli uchinchi oʻzbek milliy baleti tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Yuqorida aytib oʻtilgan “Paxta”, “Shohida”, “Gulandom” baletlari ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozilgan boʻlsa, “Oq bilak” baleti oʻzbek xalq ertaklari asosida yozilgan. Kompozitor xalq istagan narsani unga taqdim eta oldi. Baletda inson ongi va ichki psixologiyasiga taʼsir etuvchi rang-barang hissiyotlar uygʻunlik bilan yaqqol koʻrsatilgan. Baletning asosiy qahramonlari boʻlmish ikki sevishganlar yovuz afsungar tufayli turli qiyinchilik va voqealarni boshdan kechiradilar. Semurgʻ qushning yordami bilan bir-birlarini topib, murod-maqсадlariga yetadilar. Kompozitor asarni sharq koloritini uygʻunlashtirgan holda ifodalay olgan. Xalq ich-ichidan kutgan “umid” semurgʻ qushda oʻz aksini topdi. Insonlar yovuz, qora kuchlarni doim ezgulik va umid yengishiga ishondi.

Urushdan keyingi yillarda respublikamizning musiqiy hayotida ulkan oʻzgarishlar va ijodiy yutuqlar yuz bera boshladi. Atoqli bastakorlar va turli sanʼat ustalarining davrasiga birin-ketin isteʼdodli, yuqori malakali milliy kompozitorlar, yozuvchi, dramaturg, dirijyorlar, rejissorlar kirib keldilar. Oʻzbek balet sanʼati 50-90-yillarda kompozitorlardan: M.Leviyev, D.Zokirov, M.Ashrafiy, G.Mushel, B.Giyenko, I.Akbarov, U.Musayev, A.Kozlovskiy, S.Yudakov, R.Vildanov, va boshqalar, baletmeysterlardan: G.Izmailova, V.Gubskaya, E.Baranovskiy, raqqoslardan: R.Tangurlev, I.Yusupov (baletmeyster, raqqos), A.Moʻminov, S.Burxonov, dirijyorlardan: M.Ashrafiy, F.Shamsiddinov, B.Inoyatov, D.Abdurahmonova, raqqosalardan: G.Izmailova, B.Qoriyeva, S.Tanburleva, X.Komilova, R.Murodova va boshqa juda koʻp balet mutaxassislarining faol ijodiyoti tufayli rivoj topdi.<sup>2</sup>

Oradan bir necha yil oʻtib yangi davr balet sanʼatida G.Mushelning “Raqqosa” beleti (1952-y. E.Baronovskiy librettosi) katta ahamiyatga molik boʻldi. Ushbu baletda yoshlarning “katta” sahnaga

<sup>1</sup> N.Yuldasheva, N.Raxmatova. Oʻzbek musiqa adabiyoti. Darslik. Toshkent. 2016-y.

<sup>2</sup> E.Saitova, N.Abraykulova. Xoreografiya va raqs sanʼati asoslari. Darslik. Toshkent. 2015-y.

chiqishi, sahnaga intilishiga katta yoshli avlodning e'tiroz bilan qarashi asos qilib olingan. Asar markazida dastlab qishloq havaskorlik to'garagining eng yaxshi raqqosasi, so'ng xoreografiya bilim yurtining talabasi Gulnora obrazi turadi. Uning intilishlariga otasi qarshi chiqadi. Lekin bu qarshilik osonlikcha yechilib, voqealikka hikoya xarakterini beradi. Ushbu baletning tinglovchi psixestetikasiga foydali tomoni shundaki, har qanday yosh avlod (u kim bo'lishidan qat'iy nazar) o'z orzu istaklariga harakat, mashaqqat va intilish orqali erisha olishi asarda to'liq aks etgan. "Raqqosa" baleti o'zidan motivatsion ruhni tarannum etadi. Balet musiqasi yorug'lik ohanglarida ifodalanadi.

O'zbekistonda milliy baletlarni rivojlanishi bilan bir qatorda yangi janrlar ham sekin-astalik bilan o'z ildizini chuqur ota boshlaydi. Bunga misol qilib **monumental** baletlarni olish mumkin.

**Monumental**-tarixiy, tarixda bo'lgan voqea (shaxs) misolida.

U.Musayevning "To'maris" baleti tarixiy, monumental baletning mustahkam poydevoridir. Sababi, ushbu balet tinglovchi ongi va tafakkurida milliy va vatanparvarlik ruhini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Undagi To'marisning xalqi uchun fidokorona ko'rsatgan xizmatlari bevosita ruhiyatda ijobiy taassurot qoldiradi va baletning umrboqiy bo'lishini ta'minlaydi.

Ushbu tarixiy balet ilk marotaba 1982-yilda Qirg'izistonning katta opera va balet teatrida bosh baletmeyster Uran Sarbagishev tomonidan sahnalashtirilgan. 1984-yilda yesa baletmeyster I.Yusupov tomonidan Toshkent shahrining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida premyerasi bo'lib o'tgan.<sup>3</sup>

Tarixiy, monumental baletlar rivojlanishi bilan birgalikda hajviy (S.Yudakov "Nasriddinning yoshligi"), lirik (M.Ashrafiy "Sevgi tumori", "Sevgi va qilich", M.Leviyev "Suxayl va Mehri") baletlar ham o'z o'rniga yega bo'lishni boshladi.

O'zbek milliy baletining gullagan davri XX asrga to'g'ri kelgan bo'lsada, bugungi kunga kelib, uning rivojlanishi va jahon sahnalarida ijro qilinishi uchun hissa qo'shayotgan iste'dodli yosh kompozitorlar tinimsiz mehnat va mashaqqatlari orqali bunga erishmoqdalar. Misol uchun XXI asrning yosh kompozitorlaridan biri bo'lgan Behzodbek Tursunboyevning "Jaloliddin Manguberdi" nomli monumental baleti yaqinda premyera bo'lishiga qaramay san'at ixlosmandlari va xalq orasida yetarli darajada shuhratga ega bo'ldi. Yosh kompozitor ushbu 4 ko'rinishdan iborat bo'lgan baletni 2022-yilda yozgan. Mazkur musiqiy-sahnaviy asar muallifning O'zbekiston davlat konservatoriyasini tamomlash maqsadida davlat attestatsiyada O'zbekiston davlat filarmoniyasining simfonik orkestri ijrosida, Xalqaro va Respublika tanlovlar sovrindori Alibek Kabdurahmanov dirijyorligida baletning 3-ko'rinishi "Mo'g'ullar qarorgohi" sahna musiqasi ijro etilgan. Asar o'zining keskin va shiddatligi bilan tubdan farq qiladi. Mazkur baletning ilk taqdimoti 2022-yilning 23-dekabrida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi katta zalida professor-o'qituvchi va talabalar tomonidan ilk marotaba havola etilgan.

Musiqqa muallifi: B.Tursunboyev.

Ijodiy rahbar: O'zDK professori, kompozitor Oydin Abdullayeva.

Libretto muallifi: O'zDXA "Xoreografiya" kafedrasini mudiri, dosent Durdona Abduhakimova.

Sahnalashtiruvchi baletmeyster: O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor, O'zDXA professori Qodir Mo'minovdir.

Taqdim yetilgan asarda milliy kompozitorlik amaliyoti va xoreografiya san'atida ilk bora o'zbek o'g'loni Jaloliddin Manguberdi siymosining xoreografiya va musiqqa san'ati orqali gavdalanirish va abadiylashtirish maqsad qilib olingan. Mazkur asar birinchi innovatsion-ijodiy namuna sifatida alohida

<sup>3</sup> Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet "Tomaris" in the culture of Uzbek ballet place and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)

ahamiyat kasb etgan.<sup>4</sup>

Xulosa qilib aytish joizki, nafaqat XX asrda, balki, bugungi kunda ham o‘zbek milliy baletlari o‘zining o‘rni va jozibadorligini yo‘qotmagan. O‘zbek milliy baletlarini jahon baletlatidan farqi shundaki, undagi mentalitetimizga xos va mos bo‘lgan estetik qarashlar, xalqqa ijobiy psixologik ta‘sir etuvchi yondashuvlar va xattoki milliy-madaniy me‘rosga aylanib ulgurgan xalq og‘zaki ijodi ham baletlar kesimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Yaratilganiga 100 yil bo‘lishiga qaramay o‘zbek baletlari ijodkor xalq orasida hali-hanuz o‘z iforini saqlab qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Yuldasheva, N.Raxmatova. O‘zbek musiqa adabiyoti. Toshkent. 2016-y.
2. E.Saitova, N.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari. Toshkent. 2015-y.
3. D.Abduhakimova. “Jaloliddin” – yangi raqs spektakli. Madaniyat gazetasi N1. (230). 12.01.2023-soni 2-bet.
4. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet “Tomaris” in the culture of Uzbek ballet place and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
5. Achildiyeva M. Ikromova F. “O‘zbek musiqa san‘atida maqomning o‘rni” Proceedings of Global Technovation 2<sup>nd</sup> International Multidisciplinary Scientific Conferense . London 2020 90-93 bet
6. Achildiyeva M. Xojimatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. “Uyghur Folk Singing Genre” Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
7. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
8. Achildiyeva M, Xojimatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
9. Maxfuzaxon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4) 460-463
10. Xojimatov A. Nazarxodjayeva R. Korrupsiya – asr vabosi
11. Ikromova F. O‘ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO‘LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
12. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO‘LLARINING QO‘LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet
13. Xojimatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet

<sup>4</sup> D.Abduhakimova. “Jaloliddin” – yangi raqs spektakli. Madaniyat gazetasi N1. (230). 12.01.2023-soni 2-bet.

14. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
15. Hojimatov Azimjon CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciencyes VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
16. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
17. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.
18. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
19. Xojimatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO'LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.
20. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САЊЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.